

“NAZM UL-JAVOHIR” ASARIDAGI AYRIM RUBOIYLAR TAHLILI

Islomova Gulshoda

Farg’ona davlat Universiteti

filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy qalamiga mansub “Nazm ul-javohir” asarining yaratilish tarixi, mazmun-mohiyati, g‘oyaviy yo‘nalishi va undagi ruboiylarning badiiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Asar Sharq pandnoma an‘anasining yorqin namunasi bo‘lib, unda axloq, komillik, ilm, adolat, hayo, sabr kabi ma‘naviy qadriyatlar mukammal tarzda ifodalangan. Maqola ruboiylardagi fikriy qatlamlar, tasvir vositalari va tarbiyaviy g‘oyalarga alohida e‘tibor qaratadi.

Kalit so‘zlar

Navoiy, Nazm ul-javohir, pandnoma, ruboiy, axloq, ma‘naviyat, hikmat, tarbiya.

Kirish

Alisher Navoiy o‘zbek mumtoz adabiyotining eng yirik vakili sifatida nafaqat lirik she‘riyat, balki pandnoma janrida ham ulkan meros yaratgan. “Nazm ul-javohir” asari pandnoma yo‘nalishida bo‘lib, Hazrat Ali ibn Abutolib hikmatlarining musarra’ ruboiy shaklida qilingan she‘riy tarjimalarini o‘z ichiga oladi. Asar 1485- yilda sulton Husayn Boyqaroning “Risola” siga javob va minnatdorlik izhori sifatida yozilgan.

Asosiy qism

Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” deb atalgan to‘rtlik she‘rlar to‘plamining sarlavhasini “She‘r durdonalari” yoki “She‘riy durdonalar” deyilsa ham bo‘ladi. Asar muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat. Muqaddimada Navoiy dastlab an‘anaviy hamd, na‘t, vasf mavzularida qalam tebratib, so‘ng so‘z gavhari haqidagi mulohazalarini bayon etadi hamda uni shakl va ma‘no uyg‘unligi bo‘yicha a‘lo(eng oliy), avsat(o‘rta) va adno(quyi) kabi uch darajaga bo‘lib tasniflaydi. Shoir asarning yozilish sabablariga to‘xtalar ekan, Navoiy bolaligidan Qur‘on va hadisdan ta‘lim olish barobarida Hazrat

Alining hikmatlari bilan ham tanishgani, zamondosh olim va fozillardan ushbu hikmatlar fors tiliga tarjima bo'lganini eshitib, o'sha davrdagi bu sharaflı ishni turkiy tilda amalga oshirmoqni niyat qilganini qayd qiladi va bu asarni yozadi.

“Nazm ul-javohir” dagi ruboiylar mavzu jihatdan rang-barangdir. Ularda biz hayotning mohiyati, do'stlik va sevgining ulug'vorligi, insoniylikning qadr-qimmati to'g'risidagi nodir fikrlardan bahramand bo'lamiz. Quyida asardagi ruboiylardan namunalar va ularning tahlili bilan tanishamiz.

“Jolas al-fuqaroi tazdad shukran”

(Kambag'allar bilan suhbatda bo'lish, shukrni ko'paytiradi)

Jahl ahli bila kimgaki ulfat bo'lg'ay,

Ul ulfati ichra yuz ming ofat bo'lg'ay,

Faqr ahli bila angaki suhbat bo'lg'ay,

Shak yo'qki, ziyoda shuki ne'mat bo'lg'ay.

Bu ruboiyning asosiy g'oyasi- odamning kim bilan do'stlashishi, kim bilan suhbatda bo'lishi uning taqdirini belgilaydi. Jaholat ahli bilan yaqinlashish ofatga eltadi. Ruhan pok, qanoatli, faqirlikni ma'naviy boylik deb biladigan kishilar bilan suhbatda bo'lish esa insonni fazilatga eltadi. Birinchi bayt: nodon, g'azabli, jahldor kimsalar haqida. Ikkinchi baytda: jaholat ahli nilan bo'lgan yaqinlikdan „yuz ming ofat“ tug'ilishi haqida aytilyapti. Bunday odamlar bilan yurish „ofatning uyasiga kirish“ degan mazmun kelib chiqyapti. Uchinchi baytda “faqir” so'zi kelyapti, bu “kambag'al emas, balki tasavvufdagi ma'naviy kamolot egasi, dunyoviy manfaatdan poklangan, qalbi boy inson ma'nosida qo'llangan. Ruhiiy poklangan, ruhiy kamolot ahliga yaqin odam, u bilan suhbat qilgan kishi haqida bayon qilinyapti. To'rtinchi baytda: bunday suhbatdan shubhasiz, inson ne'mat va ma'naviy yuksalish topadi degan mazmun kelib chiqyapti.

“Jud bimo tajidu sadaq al-amri”

(Nimaiki topsang sadaqa qil)

Maydoni saho ichra jalodat ko'rguz,

Topqonni berur amrig'a odat ko'rguz,

Buxl aylasa, nafsing'a adovat ko'rguz,

Har nimaiki topilsa saxovat ko'rguz.

Bu ruboiyning mazmunan saxovat, kamtarlik, nafsni yengish va hayr-ehson qilish haqida. Ruboiyning birinchi misrasida „jalodat“ so'zi qo'llangan. Bu so'z Navoiy asarlari lug'atida (Alisher Navoiy asarlarining o'n besh tomligiga ilova) „mardlik“, „botirlik“, „jasoratlilik“ ma'nosida berilgan. Demak, misraning mazmuni quyidagicha: „Saxovat maydonida jasorat ko'rgaz, mardlik qil“.

Saxovat faqat mol berish emas, balki boshqalarga yordam qo'lini cho'zish ham saxovat. Shoir saxovatni „maydon“ bilan ifodalayapti. Maydon- sinov, kurash joyi. Demak, saxovat ham sinov hisoblanadi. Inson nafsini yengishi, yordamga qo'l ochishiga ham jasorat kerak.

Ikkinchi misra: „Topqonni berur amrig'a odat ko'rgaz“

Bu misrada shoir „topganingni Beruvchining amriga ko'ra berishni o'rgan“, ya'ni ehson qil deyapti. „Odat qil“ deb, faqat bir-ikki marta amal qilmasdan, doimiy hayot tarzingda amal qil, uni hayot tarzingda odatga aylantir degan mazmun kelib chiqyapti.

Uchinchi misra: „Buxl aylasa, nafsing'a adovat ko'rguz“.

Buxl- baxillik. Nafsing baxillikka boshlasa, unga dushmanlik qil, adovat ko'rgaz degan mazmunda. Baxillik nafsning illati hisoblanadi. Shoir nafsni dushman sifatida ko'rsatyapti, unga qarshi kurashish kerakligini aytyapti.

To'rtinchi misra: „Har nimaiki topilsa, saxovat ko'rguz“.

Ushbu misrada Navoiy „nimaiki topsang, shundan saxovat qil, saxovat ko'rgaz“ demoqchi. Saxovat miqdor bilan o'lchanmaydi. Saxovat miqdor bilan emas, niyatning pokligi bilan baholanadi.

Saxovat qil ,saxovat ko`rgaz ,deyapti.Saxovat miqdor bilan o`lchanmaydi . Ko`p bo`lsa keyin saxovat qilaman emas ,balki oz bo`lsa ham saxovat qilishni afzal ko`ryapti.Saxovat miqdor bilan emas ,niyatning pokligi bilan baholanadi .

Uchinchi ruboiy :

11. Birr ul-volidayni salafun

Ota-onaga mehribonlik-merosdir.

Ista ato yo`lida jon fido qilmoq ,

Zuxri abad istasang farovon qilmoq ,

Bil oniy ato –anog`a exson qilmoq.

Ota-onaga hurmat ,ehtrom, xizmat va ehson qilish ulug` fazilat ekani – ruboiyning asosiy g`oyasi . Bu ruboiyda Navoiy insonning bu dunyodagi saodati , farovonligi , umrining barakasi ota –onaning roziligiga bog`liqligini ta`kidlaydi .

1-misra:

Ota yo`lida ,ota uchun jon fido qilmoqni ista ,deyapti.Bu orqali ota oldidagi hurmat ,itoat eng yuqori martabaga chiqariladi.

2-misra:

Qulluq anoga ham ulcha imkon qilmoq.

Onaga oldida ham xizmat qilish hammaning burchi.Misrada ulcha so`zi qo`llangan. Bu oldingi misraga mazmunan bog`langan .Ya`ni otaga qanchalik hurmat ko`rsatsak onaga ham ulcha shuncha hurmat ko`rsatish kerakligi aytilyapti.Ota va ona hurmati teng qo`yilyapti.

3-misra:

Zuxri afad istasang farovon qilmoq.

Misradagi zuxri afad so`zi ,umrning davomiyligi saodat ma`nosida qo`llanilyapti.

Navoiy aytmoqchiki ; sen hayotingda farovonlik istasang Bu misraning mazmuni keyingi misrada xulosalangan .

4-misra:

Bil oni ato-anog`a ehson qilmoq.

Ya`ni bu 3-misra bilan mazmunan bog`liq . Agar sen hayotingda farovonlik istasang , ota-onaga ehson qil deyilyapti . Ehson qilish birgina moddiyat bilan o`lchanmaydi, har bir ular uchun aytgan yaxshi so`zlarimiz , har bir qilgan yaxshi ishimiz ehson hisoblanadi. Hayotda fazilat topmoq ,saodatga erishmoq, barakali umr kechirmoq –bularning barchasi ota onaga qilinadigan ehson,hurmat,e`tibor va xizmatdan keladi.

Xulosa :

Alisher Navoiy “Nazm ul-javohir” asari orqali xalq og`zaki ijodida keng tarqalgan pand-nasihat va hikmatlarni nazmga solib, ularni badiiy jihatdan yuksak darajaga ko`targan. Asarda insonning ma`naviy kamoloti, halollik, diyonat, sabr-qanoat, ilmning fazli, adolat, saxovat kabi ezgu fazilatlar qusursiz she`riy ifoda topadi. Har bir hikmat o`zida chuqur hayotiy tajriba va axloqiy mazmunni mujassam etib, o`quvchini to`g`rilik va komillikka chorlaydi.

“Nazm ul-javohir” nafaqat o`z davri uchun, balki bugungi kun jamiyati uchun ham muhim ma`naviy manba bo`lib, undagi pandu o`gitlar yosh-avlod tarbiyasida, insoniylikni ulug`lashda katta ahamiyat kasb etadi. Asarning badiiy go`zalligi, mazmuniy teranligi va umuminsonga xos hikmatlari uni Navoiy ijodining bebaho durdonalaridan biriga aylantiradi.